

DOI: 10.5281/zenodo.16601623

Link: <https://zenodo.org/records/16601623>

ENERGETIKA KORXONALARIDA MOLİYAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARI ASOSIDA HISOB SIYOSATINI SHAKLLANTIRISH VA AKTIVLARNI BAHOLASH YO'LLARI

Uralov Temur Boxodir o'g'li

*Toshkent Kimyo xalqaro universiteti mustaqil izlanuvchisi
uralov.t.b@gmail.com*

***Annotatsiya** - Ushbu maqolada energetika korxonalarida Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS) asosida hisob siyosatini shakllantirish va aktivlarni baholash metodologiyasi tahlil qilingan. Tadqiqotda MHXSga o'tishning asosiy prinsiplari, energetika sohasiga xos xususiyatlar hamda amaliy qo'llashdagi muammolar ko'rib chiqilgan. Maqolada xalqaro standartlar talablari asosida hisob siyosatini ishlab chiqishning metodologik asoslari, aktivlarni baholashning turli usullari va energetika korxonalari uchun eng maqbul yondashuvlar taklif etilgan.*

***Kalit so'zlar** - MHXS, transformatsiya, energetika korxonalari, moliyaviy hisobot, avtomatlashtirish, texnologik yechimlar, hisob siyosati.*

KIRISH

Jahon iqtisodiyotining globallashuvi va xalqaro moliyaviy bozorlar integratsiyasi kuchayib borayotgan bir sharoitda korxonalarning moliyaviy hisobotini birlashtirilgan standartlar asosida tuzish zarurati kundan kunga oshib bormoqda. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS) moliyaviy hisobotning shaffofligini, solishtirish imkoniyatini va ishonchliligini ta'minlashda muhim ro'l o'ynaydi.

O'zbekistonda 2020-yildan boshlab yirik korxonalar uchun MHXSga o'tish majburiy etib belgilandi. Energetika sohasi mamlakat iqtisodiyotining strategik tarmog'i sifatida MHXSni joriy etishda alohida e'tibor talab qiladi. Energetika korxonalari ko'p milliard dollarlik asosiy vositalarga ega bo'lib, ularning to'g'ri baholanishi mamlakat iqtisodiyotining real holatini aks ettirishda muhim ahamiyatga ega.

Tadqiqotning maqsadi energetika korxonalarida MHXSni qo'llashning nazariy asoslari va amaliy jihatlarini kompleks tahlil qilish, hisob siyosatini shakllantirish va aktivlarni baholash metodologiyasini takomillashtirish yo'llarini aniqlashdan iborat.

ADABIYOTLAR SHARHI

MHXS joriy etilishining nazariy asoslari va amaliy jihatlarini bo'yicha ko'plab ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan. Jonson K. va boshqalar (2021) tomonidan olib borilgan tadqiqotda MHXSni tarmoq korxonalarida qo'llashning asosiy prinsiplari ko'rib chiqilgan. Mualliflar xalqaro standartlar asosida moliyaviy hisobot tuzishning afzalliklari va qiyinchiliklarini tahlil qilgan.[1]

Kristensen va Nikolayev (2022) o'zlarining tadqiqotida MHXSni qo'llashning kapital bozorlariga ta'sirini o'rgangan. Ular xalqaro standartlar asosida tuzilgan moliyaviy hisobotlar investorlarning qarorlarini qabul qilishda muhim ro'l o'ynashini isbotlagan.[2]

Energetika sohasida MHXSni joriy etish masalasi Brun va Zambon (2023) tadqiqotlarida keng yoritilgan. Mualliflar energetika korxonalarining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda xalqaro standartlarni qo'llashning amaliy yo'llarini taklif etgan.[3]

Aktivlarni baholash metodologiyasi bo'yicha Peterson va Lee (2023) tomonidan olib borilgan tadqiqotda haqqoniy qiymat tushunchasi va uning energetika sohasidagi qo'llanishi batafsil tahlil qilingan. Mualliflar maxsus aktivlarni baholashda turli yondashuvlarning afzalliklari va kamchiliklarini solishtirgan.[4]

Rivojlanayotgan bozorlarda MHXS joriy etish masalalari Chehade va Procházka (2024) tomonidan Saudiya Arabistoni misolida chuqur tahlil qilingan. Mualliflar 2014-2019 yillarda 98 ta ro'yxatga olingan korxonani o'rganib, rivojlanayotgan iqtisodiyotlarda xalqaro standartlarni qo'llashning institutsional va madaniy to'siqlarini aniqlagan. Ushbu tadqiqot energetika sohasida faoliyat yurituvchi ko'p milliy korxonalar uchun ayniqsa muhim, chunki ular ko'pincha rivojlanayotgan bozorlarda ishlaydi va o'xshash qiyinchiliklarga duch keladi.[5]

Aktivlarning qadrsizlanishi va adolatli qiymat o'lchash muammolari Dudycz va Prażników (2020) tomonidan keng qamrovli adabiyotlar tahlili asosida o'rganilgan. Mualliflar IAS 36 va MHXS 13 standartlari bo'yicha 46 ta akademik nashrni sintez qilib, model asosidagi baholash usullarining ishonchlilik muammolarini aniqlagan. Bu tahlil energetika korxonalari uchun ayniqsa dolzarb, chunki neft zaxiralari, qayta tiklanadigan energiya qurilmalari va maxsus infratuzilma obyektlari ko'pincha faol ikkilamchi bozorga ega emas va model asosida baholashni talab qiladi.[6]

Energetika sohasida xalqaro amaliyot farqlari Stadler va Nobes (2024) tomonidan qazib olish sanoati korxonalari misolida o'rganilgan. Mualliflar 11 mamlakatdagi 307 ta korxoning hisob siyosatini tahlil qilib, MHXS 6 standarti bo'yicha qidiruv va baholash xarajatlarini hisobga olishning 10 ta turli usulini aniqlagan. Bu tadqiqot shuni ko'rsatdiki, xalqaro standartlarning uyg'unlashtirishga qaramasdan, energetika korxonalari o'rtasida hisob amaliyotida sezilarli farqlar mavjud bo'lib qolmoqda.[7]

Milliy hamyurtlarimizdan Karimov va Rasulov (2022) O'zbekiston korxonalarida MHXSni joriy etishning dastlabki natijalarini tahlil qilgan. Ularning fikricha, MHXSga o'tish jarayoni korxonalarda kadrlar tayyorlash va tashkiliy o'zgarishlar bilan bog'liq qiyinchiliklarni keltirib chiqarmoqda.[8]

Tartibga solish tizimi va professional mulohaza masalalari Akhmedjanov va boshqalar (2022) tomonidan O'zbekiston elektr energetikasi korxonalari misolida tadqiq etilgan. Tadqiqotchilar energetika sohasining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda MHXS joriy etishning amaliy yo'llarini ko'rib chiqib, infratuzilma investitsiyalari, uzoq muddatli energiya shartnomalari va tartibga solinadigan bozorlarda tushumlarni tan olish murakkabliklarini batafsil tahlil qilgan.[9]

METODOLOGIYA

Tadqiqotda quyidagi metodlar qo'llanilgan:

Nazariy tahlil usuli orqali MHXSning konseptual asoslari va energetika sohasiga xos xususiyatlar o'rganildi.

Qiyosiy tahlil metodi yordamida milliy standartlar va MHXS o'rtasidagi farqlar aniqlandi.

Tizimli yondashuv asosida hisob siyosatini shakllantirish jarayoni bosqichma-bosqich ko'rib chiqildi. Amaliy jihatlar tahlil qilish uchun keys-stadi metodi qo'llanildi. Tadqiqotda sifatli va miqdoriy usullar kompleks ravishda qo'llanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR MUHOKAMASI

Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari energetika korxonalari uchun yangi hisobot paradigmasini shakllantirdi. Energetika korxonalarining aktivlari tabiatan uzoq muddatli bo'lganligi sababli, MHXS konseptual doirasi muhim metodologik o'zgarishlarni talab qiladi.

Konseptual tizimning energetika sohasiga tatbiqi jarayonida aktiv tushunchasining kengayishi kuzatilmoqda. An'anaviy milliy hisobot amaliyotida aktiv asosan statik obyekt sifatida ko'rib chiqilsa, MHXS talablari aktivni dinamik resurs sifatida baholashni nazarda tutadi. Bu o'zgarish energetika korxonalari uchun muhimdir, chunki elektr stansiyalar va tarmoq obyektlari uzoq vaqt davomida iqtisodiy foyda keltiradi va ularning qiymati turli omillarga bog'liq ravishda o'zgarib turadi.

Tadqiqot natijalari ko'rsatishicha, professional mulohaza prinsipi energetika korxonalarida MHXSni qo'llashning kalit elementi bo'lib qolmoqda. Turli energetika korxonalarini qiyosiy tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, o'xshash operatsiyalarga qaramasdan, ularning hisob siyosatidagi yondashuvlar sezilarli farq qilishi mumkin. Bu holat standartlarning moslashuvchanlik imkoniyatlarini ko'rsatadigan bo'lsa-da, hisobot foydalanuvchilari uchun solishtirish imkoniyatini cheklaydi.

Tadqiqot doirasida o'rganilgan energetika korxonalari tajribasi shuni ko'rsatadiki, MHXS asosida hisob siyosatini shakllantirish bosqichma-bosqich evolyutsion jarayon hisoblanadi. Dastlabki bosqichda korxonalar asosan milliy standartlardan MHXSga texnik o'tishga e'tibor qaratgan bo'lsa, keyingi bosqichlarda hisob siyosatini strategik boshqaruv vositasi sifatida foydalanish tendensiyasi kuchaymoqda.

Amaliy tajriba tahlili shuni ko'rsatadiki, energetika korxonalarida hisob siyosatini ishlab chiqish jarayoni uchta asosiy bosqichdan iborat:

Birinchi bosqichda korxonalar mavjud amaliyotni MHXS talablariga moslashtirishga harakat qiladi;

Ikkinchi bosqichda soha xususiyatlarini hisobga olgan holda standartlarning tanlov imkoniyatlaridan foydalanish boshlanadi;


Uchinchi bosqichda esa hisob siyosati korxonaning strategik maqsadlari bilan integratsiyalashadi.

Hisob siyosatining shakllanish jarayonida eng murakkab masala deb asosiy vositalarni hisobga olish usullarini tanlash hisoblanadi. Tadqiqot natijalari ko'rsatishicha, ko'pchilik energetika korxonalari dastlabki davrda boshlang'ich qiymat

modelini tanlaydi, biroq vaqt o'tishi bilan qayta baholash modeliga o'tish tendensiyasi kuchayib bormoqda.

Energetika sohasidagi aktivlarni baholash amaliyoti MHXS joriy etilishi bilan tubdan o'zgaradi. Haqqoniy qiymat konsepsiyasi energetika korxonalari uchun yangi imkoniyatlarni ochadi, lekin ayni vaqtda yangi qiyinchiliklar ham yuzaga keladi. Energetika aktivlari odatda maxsus maqsadli obyektlar bo'lganligi sababli, ularning haqqoniy qiymatini aniqlash an'anaviy baholash usullaridan farqli yondashuvni talab qiladi.

Bizning fikrimizcha, energetika korxonalari uchun maxsus aktivlarni baholashda daromad yondoshuvi, taqsimlovchi infratuzilmani baholashda esa xarajatlar yondoshuvi qo'llash eng to'g'ri yo'l hisoblanadi (1-rasm).



1-rasm. Energetika korxonalari aktivlarining adolatli qiymatini aniqlash usullari.⁹⁷

Tadqiqot jarayonida aniqlanishicha, energetika korxonalarida aktivlarni baholashning uch asosiy usuli qo'llanilmoqda. Xarajatlar yondashuvi asosan infratuzilma obyektlari uchun ishlatiladi, daromadlar yondashuvi esa generatsiya aktivlari uchun mos keladi. Bozor yondashuvi faqatgina chegaralangan holatlarda qo'llaniladi, chunki energetika aktivlari uchun faol ikkilamchi bozor mavjud emas.

Amaliy tajriba shuni ko'rsatadiki, aktivlarni baholashda eng katta muammo diskont stavkasini aniqlash hisoblanadi. Energetika sohasi tartibga solinadigan soha bo'lganligi sababli, diskont stavkasini hisoblashda tartibga solish xavfini ham hisobga olish zarur bo'ladi. Bu esa baholash jarayonini yanada murakkablashtiradi va yuqori malakali mutaxassislar ishtirokini talab qiladi.

MHXS 16 standarti asosiy vositalarni baholashda ikki muqobil model taklif etadi. Tadqiqot natijalari ko'rsatishicha, energetika korxonalari uchun bu tanlov

⁹⁷ Muallif ishlanmasi

strategik ahamiyatga ega. Boshlang'ich qiymat modeli barqarorlik va prognoz qilish imkonini ta'minlaydi, qayta baholash modeli esa aktivlarning haqiqiy iqtisodiy qiymatini aks ettirishga imkon beradi.[10]

1- jadval. Energetika korxonalari uchun asosiy vositalarni baholash modellarini taqqoslanishi⁹⁸

Kriteriyalar	Boshlang'ich qiymat modeli	Qayta baholash modeli
Ko'rsatkichlarning meyoriyligi	Yuqori – aktivlar qiymatida o'zgarishlar yo'q	O'rtacha – qayta baholashga bog'liq ravishda davriy o'zgarishlar
Qiymatni aks ettirishda ishonchlilik	O'rtacha – bozor qiymatidan farq bo'lishi mumkin	Yuqori – joriy bozor qiymatini aks ettiradi
Qo'llash murakkabligi	Past – adolatli qiymatni muntazam baholash talab etilmaydi	Yuqori – muntazam qayta baholash talab qilinadi
Kapitalga ta'siri	Neytral – qayta baholash zaxirasi yo'q	Ijobiy – kapital tarkibida qayta baholash zaxirasi shakllanadi
Foydaga ta'siri	Barqaror amortizatsiya ajratmalari	Qayta baholashdan so'ng amortizatsiya ajratmalari oshadi

Energetika korxonalariga xos bo'lgan maxsus aktivlar (energetik quvvatlar, elektr uzatish liniyalari, transformator podstantsiyalari) faol bozorning yo'qligi bilan tavsiflanadi, bu esa ularning aniq qiymatini aniqlashda muammolarni keltirib chiqaradi (1-jadval). Amaliy tajribani tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, ko'pchilik energetika korxonalari aralash yondashuvni qo'llashadi. Strategik ahamiyatga ega aktivlar uchun qayta baholash modeli, uskunalar uchun esa boshlang'ich qiymat modeli qo'llaniladi. Bunday yondashuv standartlar tomonidan rasman taqiqlanmagan bo'lsa-da, izchillik prinsipiga muayyan darajada zid keladi.

Texnologik rivojlanish sur'atlari va energetika sohasidagi global trendlar aktivlarning iqtisodiy hayotini qisqartirishi mumkin. MHXS 36 standarti bo'yicha qadrsizlanish belgilarini identifikatsiya qilish va tegishli testlarni o'tkazish energetika korxonalari uchun muntazam jarayon bo'lib qoldi.[11]

Tadqiqot natijalari ko'rsatishicha, energetika sohasida qadrsizlanishning asosiy sabablari orasida texnologik eskirish, tartibga solish talablarining o'zgarishi va energiya sarfining samaradorligi borasidagi talablarning kuchayishi turibdi. Ayniqsa, an'anaviy yoqilg'i asosidagi elektr stansiyalarda qadrsizlanish xavfi yuqori bo'lib, bu korxonalar moliyaviy hisobotlarda tegishli rezervlarni shakllantirishga majbur.

Energetika obyektlarining murakkabligi va turli komponentlarning farqli xizmat muddatlari MHXS 16 standartidagi komponentlar hisobi yondashuvining amaliy ahamiyatini kuchaytirdi. Bu yondashuv energetika korxonalarida amortizatsiya hisoblashning aniqligini sezilarli darajada oshirish imkonini beradi.[10]

MHXSni samarali joriy etishning asosiy sharti malakali kadrlarning mavjudligi hisoblanadi. Tadqiqot natijalari ko'rsatishicha, energetika korxonalarida MHXSni qo'llashning dastlabki bosqichida kadrlar yetishmovchiligi asosiy to'siq bo'lib qolgan.

Bu muammoni hal qilish uchun korxonalar turli strategiyalarni qo'lladilar. Ayrimlari tashqi konsultantlarga murojaat qildi, boshqalari esa ichki kadrlarning

⁹⁸ Muallif ishlanmasi

malakasini oshirish dasturlarini amalga oshirish yo'lini tanladi. Eng samarali yondashuv bu ikki usulning kombinatsiyasi ekanligi aniqlandi.

2-jadval. MHXS bo'yicha o'qitish va buxgalterlarni xalqaro sertifikatlash doirasida imtihonlarni topshirish xarajatlari qoplab beriladigan buxgalteriya hisobi sohasidagi xalqaro tashkilotlar va xalqaro buxgalter sertifikatlari [12]

RO'YXATI

№	Buxgalteriya hisobi sohasidagi xalqaro tashkilotlar nomi	Buxgalteriya hisobi sohasidagi xalqaro buxgalterlar sertifikatlari nomi	Xalqaro sertifikatlar doirasidagi buxgalteriya hisobiga tegishli fan yoki kurslar nomi
1.	Association of Chartered Certified Accountants (ACCA)	Association of Chartered Certified Accountants (ACCA)	Moliyaviy hisobot "Financial Reporting (FR)"; Xalqaro moliyaviy hisobot diplomi "Diploma of International Financial Reporting (DipIFR).
2.	Certified Institute of Management Accountants (CIMA)	Certified Institute of Management Accountants (CIMA)	Moliyaviy hisobot va soliq "Financial Reporting and Taxation (F1)".
3.	Institute of Chartered Accountants in England and Wales (ICAEW)	Associated Chartered Accountant (ACA)	Audit xizmatlari "Audit and Assurance"; Moliyaviy hisob va moliyaviy hisobot "Financial Accounting and Reporting"

Institutsional infratuzilmaning rivojlanishi ham MHXSni joriy etish samaradorligiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Auditorlik xizmatlari sifatining oshishi, baholovchi kompaniyalarning faollashuvi va konsalting xizmatlari bozorining rivojlanishi energetika korxonalari uchun MHXSni qo'llashni yengillashtirdi.

XULOSA

O'tkazilgan tadqiqot energetika korxonalarida MHXSni joriy etishning nazariy asoslari va amaliy mexanizmlarini kompleks tahlil qilish imkonini berdi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, xalqaro moliyaviy hisobot standartlarini energetika sohasida qo'llash nafaqat texnik-metodologik o'zgarish, balki korxonalarining strategik faoliyatini transformatsiya qiluvchi jarayondir.

MHXSning konseptual tizimi energetika korxonalari uchun yangi moliyaviy menejment paradigmasini shakllantirdi. Prinsiplarga asoslangan yondashuv korxonalarga o'zlarining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda hisob siyosatini moslashtirish imkoniyatini berdi, biroq bu jarayon professional mulohaza va yuqori malakali kadrlarni talab qildi.

Aktivlarni baholash metodologiyasining o'zgarishi energetika korxonalarining moliyaviy holatini ko'rsatishda revolyutsion o'zgarishlarga olib keldi. Haqqoniy qiymat konsepsiyasi energetika aktivlarining haqiqiy iqtisodiy qiymatini aks ettirish imkoniyatini yaratdi, lekin baholash jarayonining murakkabligi va ma'lumotlar yetishmovchiligi muammolarini ham yuzaga keltirdi.

Hisob siyosatini shakllantirish jarayoni energetika korxonalarida uchta asosiy bosqichdan o'tdi: texnik moslashtirish, strategik integratsiya va institutsional takomillashtirish. Har bir bosqich o'zining xususiy qiyinchiliklari va yutuqlariga ega bo'ldi.

Xulosa qilib aytganda, MHXSni energetika korxonalarida joriy etish O'zbekiston energetika sohasining xalqaro standartlarga mos darajasida rivojlanishi uchun muhim bosqich hisoblanadi. Bu jarayon nafaqat korxonalarning moliyaviy hisobot sifatini oshirish, balki mamlakat energetika tizimining umumiy investitsion jozibadorligini kuchaytirish va iqtisodiy o'sishga hissa qo'shish imkoniyatini yaratadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, MHXS talablarini to'liq va sifatli bajarish uchun kompleks yondashuv zarur bo'lib, u davlat siyosati, korxona strategiyasi va ilmiy tadqiqotlar yo'nalishlarini birlashtirishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Johnson, K., Barrag, M., & Williams, P. (2021). Implementation of IFRS in utility companies: Challenges and opportunities. *Journal of International Financial Management*, 15(3), 45-62.
2. Christensen, H., & Nikolaev, V. (2022). IFRS adoption and capital market effects: Evidence from emerging markets. *International Accounting Review*, 34(4), 289-308.
3. Brun, A., & Zambon, S. (2023). Fair value measurement in energy sector: A comprehensive analysis. *Energy Economics and Management*, 28(2), 134-151.
4. Peterson, J., & Lee, S. (2023). Asset valuation methodologies under IFRS: Application in energy companies. *Corporate Finance International*, 19(1), 112-127.
5. Chehade, S., & Procházka, D. (2024). Value relevance of accounting information in an emerging market: the case of IFRS adoption by non-financial listed firms in Saudi Arabia. *Journal of Accounting in Emerging Economies*, 14(1), 220-246.
6. Dudycz, T., & Prażników, J. (2020). Does the Mark-to-Model Fair Value Measure Make Assets Impairment Noisy?: A Literature Review. *Sustainability*, 12(4), 1504.
7. Stadler, C., & Nobes, C. (2024). Varied international practice in accounting for extractive activities. *Accounting and Business Research*, 54(7), 412-429.
8. Karimov, A., & Rasulov, B. (2022). O'zbekiston korxonalarida MHXS joriy etishning dastlabki natijalari. *Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar*, 3(2), 78-89.
9. Akhmedjanov, K. B., Akhmadjonov, A. K., & Uralov, T. B. (2022). Implementation of IFRS in electric power companies of Uzbekistan taking into account national peculiarities and specifics energy sector. *Mathematical Statistician and Engineering Applications*, 71(4), 7833-7846.
10. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS) 16: Asosiy vositalar. (2022). London: IFRS fondi.
11. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS) 36: Aktivlarning qadrsizlanishi. (2020). London: IFRS fondi.
12. <https://lex.uz/pdfs/5678522>.